

**“Temiryo’linfratuzilma” AJ 17-son Yo’l mashinalari stansiyasi filiali boshlig’i
M.S.Mamedov huzurida o’tkazilgan yig’ilish BA Yo NNOMASI № 4**

«26» vanvar 2026 y
Kogon shaxri.

Ishtirok etdi: 35 nafar ishchi xodimlar
Taklif qilinganlar: Buxoro Transport
prokuraturasi tergovchisi Sh.Raximov,
Buxoro viloyat Transportda havfsizlikni
ta’minlash boshqarmasi boshlig’i
O.M.Fayziyev, XOOB boshlig’i R.I.Husenovlar

KUN TARTIBI:

Korrupsiya va unga oid jinoyat turlari, jinoyat oqibatlari, jinoyat uchun jazo muqarrarlari, korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni o’rganish va tahlil qilish va korrupsiyaning oldini olish, shuningdek kiberjinoyatlar tushunchasining muhokamasi

So’zga 17-son Yo’l mashinalari stansiyasi filiali boshlig’i M.S.Mamedov chiqib, korrupsiya va unga oid jinoyat turlari, korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlar, korrupsiyaning oldini olish yuzasidan so’zni Buxoro Transport prokuraturasi tergovchisi Sh.Raximovga berdi.

Buxoro Transport prokuraturasi tergovchisi Sh.Raximov o’z so’zida Davlatimiz rahbarining 05.03.2025 yildagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha milliy kengash yig’ilishida belgilab bergan vazifalar hamda ularni amalga oshirish jarayonida ko’zda tutilayotgan natijalar, bu illatga qarshi kurashishni umummilliy harakat sifatida qarash lozimligi ta’kidlab o’z so’ziga yakunida korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa bo’lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo’llash samarali hisoblanmasligi, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va jamiyatning o’zaro jipsligini talab etilishi, zero, bu yo’nalishda olib borilayotgan islohotlar fuqarolar tomonidan ham faollik ko’rsatilsagina, ko’zlangan natijani berishi mumkinligini aytib o’tib so’ziga yakun yasadi.




Shundan so’ng so’zga Buxoro viloyati Transportda havfsizlikni ta’minlash boshqarmasi boshlig’i O.M.Fayziyev va boshqarma XOOB boshlig’i R.I.Husenovlar chiqib, 17-son Yo’l mashinalari stansiyasi ishchi-xodimlarini kiberjinoyatlardan

himoya qilish maqsadida shahsiy telefon apparatlarini viruslardan tozalash bo'yicha amaliy, huquqiy tushunchalar berib,



internet orqali sodir etilayotgan jinoyatlardan himoya qilish maqsadida keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlari olib borilib, kiberxafsizlik bo'yicha kiberjinoyatlar va ulardan himoyalaniish yo'llari ijtimoiy tarmoqlarda uchrayotgan xavflar, virusli dasturlar, "apk." ilovalar, shaxsiy malumotlarni sir saqlanishi hamda nomalum havolalarni ochmaslik haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tildi.



Yuqoridagilarni inobatga olib, yig'ilish


Qaror qiladi:

1. Korrupsiya va unga oid jinoyat turlari, jinoyat oqibatlari, jinoyat uchun jazo muqarrarlighi, korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni o'rganish va tahlil qilish va korrupsiyaning oldini olish, shuningdek kiberjinoyatlar mavzusidan kelib chiqqan ko'rsatmalar ijro uchun qabul qilinsin;

2. Korxonaning mas'ul raxbarlari o'z qo'l ostidagi ishchi-xodimlarining xizmatini to'g'ri tashkil etib, korrupsiyaga karshi kurash bo'yicha zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

3. Yigilish bayonnomasi nusxasi Buxoro transport prokuraturasi va Buxoro viloyat Transportda havfsizlikni ta'minlash boshqarmasiga yuborilsin.

**Yig'ilish
raisi**



M.S.Mamedov

Таъинловчи ўрн.  А.М. Таъинловчи